




TO'QIMACHILIK ATAMALARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI MISOLLAR

Matchonova Onaxon Sobirjon qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti,

Lingvistika(ingliz tili) 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14769253>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 25-yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 30-yanvar 2025 yil

to'qimachilik atamaları, leksik xususiyatlar, ingliz va o'zbek tillari, terminologiya, mato turlari, tarjima muammolari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi to'qimachilik atamalarining leksik xususiyatlari tahlil qilingan. To'qimachilik sohasi xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan terminologiyaga ega bo'lib, har ikki tildagi atamalar kelib chiqishi, semantik tuzilishi va qo'llanilish xususiyatlari bo'yicha o'xshashlik va farqlarga ega. Maqolada to'qimachilik mahsulotlarining nomlari, matolar turlari, ishlov berish texnologiyalari, naqsh va teksturalar bo'yicha atamalar solishtirib, ularning leksik semantic tahlili keltirilgan. Shuningdek, maqolada ingliz va o'zbek tillarida mato nomlarining sinonimiya va omonimiya hodisalari tahlil qilingan.

Adabiyotlar sharxi: Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar ingliz va o'zbek tillaridagi to'qimachilik terminologiyasini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy manbalar va ilmiy qo'llanmalardan iborat. Axmedova, S "O'zbek to'qimachilik sanoati terminologiyasining leksik semantic xususiyatlari". Ushbu asarda o'zbek tilidagi to'qimachilik atamalarining kelib chiqishi va rivojlanishi keng tahlil qilingan. Muallif mato nomlarining tarixiy taraqqiyoti va o'zlashish jarayonlariga urg'u bergan.

Muhokama va natijalar. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra ingliz va o'zbek tillaridagi to'qimachilik atamaları leksik jihatdan bir qator umumiylik va farqlarga ega. Tadqiqot davomida atamalar kelib chiqishi, semantic tuzilishi va qo'llanilish doirasi tahlil qilindi:

1. To'qimachilik atamalarining kelib chiqish manbalari: O'zbek tilidagi to'qimachilik terminlarining aksariyati turk, arab, fors tillaridan kirib kelgan. Masalan, "atlas", "baxmal", "shoyi" kabi so'zlar qadimgi sharq madaniyatidan o'zlashgan. Ingliz tilida esa ko'plab terminlar lotin, fransuz, va italyan tillaridan olingan. Masalan, "satin", "chiffon", "denim" so'zlari fransuz tilidan kirib kelgan.

2. Leksik o'xshashlik va tafovutlar: Bazi to'qimachilik atamaları xalqaro xususiyatiga ega bo'lib, ikki tilde ham bir xil shaklda ishlatiladi.

Masalan, "satin", "velvet", "cotton" so'zlari o'zbek tilida ishlatiladi. Biroq, ayrim mato turlari faqat o'zbek madaniyatiga xos bo'lib, ularning ingliz tilida aniq ekvivalenti mavjud emas.

Masalan, "adras", "alocha", "bekasam" matolari ingliz tiliga erkin tarjima qilinadi yoki tavsifiy yo'l bilan tushuntiriladi.

3. Terminlarning tarjima muammolari: Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida sinonimlar va ekvivalentlar tanlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ba'zan terminlarni aniq ekvivalent bilan emas, balki tasviriy usulda ifodalash talab etiladi. Masalan, "herringbone pattern" termini o'zbek tilida "tuxum shaklidagi naqsh" deb tarjima qilinadi, lekin to'liq ekvivalent bo'la olmaydi.

4. Texnologik va an'anaviy terminlarning uyg'unligi: Zamonaviy to'qimachilik texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ko'plab yangi terminlar ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga kirib kelmoqda.

Masalan, "polyester", "microfiber", "jacquard" kabi atamalar ko'p hollarda transliratsiya qilinadi. Shu bilan birga, o'zbek tilida milliy av an'anaviy atamalar saqlanib qolmoqda va ular kundalik hayotda keng qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalar chiqarildi.:

1. Terminologik o'zaro ta'sir: Ingliz va o'zbek tillari o'rtasida to'qimachilik sohasida kata leksik almashinuv kuzatilmoqda. Chet el terminlari asosan transliteratsiya yoki erkin tarjima yo'li bilan o'zlashtiriladi.
2. Tarjima qiyinchiliklari: O'zbek tilida ayrim mat ova texnologik jarayonlarning aniq ekvivalenti yo'qligi sababli, tavsifiy tarjima yoki tushuntirish asosida ifodalash keng qo'llaniladi.
3. Milliy o'ziga hoslik: O'zbek, milliy matolariga oid terminlar ingliz tilida to'liq aks etmaydi, bu esa ularni xalqaro maydonda targ'ib qilishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.
4. Standartlashtirish zarurati: To'qimachilik sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va samarali kommunikatsiyani ta'minlash uchun terminlarning rasmiy standartlashtirilishi va izchil qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qismi: Ingliz va o'zbek tillarida to'qimachilik atamalarining muhim jihati ularning xalqaro xususiyatga egaligidir. Bazi atamalar to'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan bo'lsa, ayrimlari esa o'zbek madaniyatiga xos holda mavjud. To'qimachilik sohasidagi terminologiyani o'rganish va standartlashtirish xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova.S. O'zbek to'qimachilik terminologiyasining leksik-semantik xususiyatlari. Toshkent: O'zRFA Tilshunoslik instituti nashriyoti.
2. Johnson.R Textile science and technology. New York: Springer publications.
3. G'afforov.B O'zbek milliy matolarining turlari va ularning lingivistik tavsifi Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Mirzaeva.N Zamonaviy to'qimachilik atamaları va ularning tarjima muammolari. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
5. Wikipedia. Textile Terminology. Retrieved from www.wikipedia.org.